SAMARQAND VILOYATI PAXTACHI TUMANI HOKIMINING
QARORI

2022 - yil 27 - may 213-7-102-Q/22 Paxtachi tuman hokimligi

Viloyat hokimining 2022-yil 23-maydagi 233-7-0-Q/22-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagi “Hududlarda shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalarini sement-beton qoplama bilan qurish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-249-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi qarori to‘g‘risida

Tumanda yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, aholi, eng avvalo, qishloq joylarda yashovchilarning hayot faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, aholi punktlarining ko‘chalari hamda xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari (keyingi o‘rinlarda - ichki yo‘llar) holatini yaxshilash va ulardan foydalanish sifatini oshirish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Viloyat hokimining 2022-yil 23-maydagi 233-7-0-Q/22-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagi “Hududlarda shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalarini sement-beton qoplama bilan qurish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-249-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 2022-

yilda sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish parametrlari tasdiqlanganligi;

2022-yilda klaster usulida sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish ishlari bo‘yicha:

manzilli ro‘yxatlar joylarda sektorlar rahbarlarining “mahallabay” o‘rganishlari davomida bildirgan takliflari asosida shakllantirilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanishi;

xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobiga 2022-yilda amalga oshiriladigan obyektlar - Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi huzuridagi “Avtoyo‘linvest” agentligi buyurtmachiligi asosida amalga oshirilishi, qo‘shimcha obyektlarga - Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” IK DUKlar buyurtmachi etib belgilanganligi;

klaster usulida sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish ishlarini amalga oshiruvchi bosh pudratchi (keyingi o‘rinlarda - bosh pudratchi) tashkilot Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan eng yaxshi takliflarni tanlab olish orqali aniqlanishi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Musirmanov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (R.Magripova), tegishli tashkilotlar:

bir hafta muddatda 2022-yilda tumanda sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish bo‘yicha manzilli ro‘yxatlarni (keyingi o‘rinlarda - manzilli ro‘yxat) belgilangan tartibda shakllantirib, tasdiqlash uchun xalq deputatlari viloyat Kengashiga kiritsin;

klaster usulida sement-beton qoplamali ichki yo‘llarni qurish ishlarini amalga oshiruvchi bosh pudratchilar yuzasidan takliflarni tanlab olish uchun xalq deputatlari viloyat Kengashiga kiritsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Musirmanov), tuman Qurilish bo‘limi boshlig‘i (S.Qilichev) tasdiqlangan manzilli ro‘yxatlarga kiritilgan obyektlarni belgilangan muddatlarda sifatli qurilib, foydalanishga topshirilishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Husanov), “Paxtachi” gazetasi tahririyati (S.Qurbonov)ga ommaviy axborot vositalarida klaster usulida ichki yo‘llarni sement-beton qoplamaga o‘tkazish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng ko‘lamda yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Musirmanov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **M.Xamdamov**